

## **ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**Ashurov Shuhratbek Qudrat o‘g‘li**

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

**Mirazova Shoxista Davron qizi**

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

**Maxmudov Nurislom Ilxom o‘g‘li**

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada hozirgi kunda o‘zining iqtisodiyotda o‘z o‘rnini mustahkamlab kelayotgan Elektron tijorat to‘g‘risida. Elektron tijorat sohasining rivojlanish istiqbollari, me’yoriy huquqiy hujjatlar shakllangankigi hamda ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** elektron tijorat, YaIM, mobil abonentlar, savdo aylanmasi.

### **АННОТАЦИЯ**

Статья посвящена электронной коммерции, которая в настоящее время укрепляет свои позиции в экономике. Будут проанализированы перспективы развития сферы электронной коммерции, сформированы нормативные правовые акты и показатели.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, ВВП, мобильные абоненты, оборот продаж.

### **ABSTRACT**

The article is devoted to e-commerce, which is currently strengthening its position in the economy. Prospects for the development of e-commerce will be analyzed, regulatory legal acts and indicators will be formed.

**Keywords:** e-commerce, GDP, mobile subscribers, sales turnover.

### **KIRISH**

XXI asrda insonlarning ajralmas bir qismiga aylangan internet oldingi davrlardagi faoliyatlarni bir muncha osonlashtirdi. 1980-yillarda bir-biri bilan elektron hujjatlar almashuvchi individual foydalanuvchilar soni oshganidan so‘ng, 1990-yillarda eBay va Amazonning yuksalishi elektron tijorat sanoatida inqilob qildi. Iste’molchilar endi

ko‘plab mahsulotlarni faqat elektron tijorat sotuvchilari shuningdek, elektron sotuvchilar deb ataladigan va elektron tijorat imkoniyatlariga ega bo‘lgan do‘konlardan onlayn xarid qilishlari mumkin. Misol tariqasida tijoratni oladigan bo‘lsak, insonlarning hayotiga internet savdo kirib keldi. Bunda u bir qator afzalliklarni o‘zida mujassam etdi:

Bozorga bormay turib o‘z ehtiyojlari uchun buyurtma berish;  
Bozorlarga borish uchun vaqt ni sarflamaslik;

Elektron tijoratning rivojlanish tarixiga qaraydigan bo‘lsak, uni internetdan foydalanish ko‘rsatkichi ortishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababdan elektron tijorat AQSh, YI mamlakatlarida dastlabki rivojlanish bosqichlarini o‘zlarida mujassam etgan. Misol tariqasida AQSh (Amazon, walmart, apple, eBay) Buyuk Britaniya (ASOS, Tesco) YI (Zalando, Cdiscount, Zara, Otto GmbH) elektron tijorat yaqqol namoyondalari hisoblanadi. Shunga qaramasdan XXR elektron tijorat sohasida ham butun dunyoda o‘z o‘rnini egallash uchun bir qator ishlar olib bordi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**


Asosiy hujjatlardan biri hisoblanmish “Elektron tijorat” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunida quyidaficha ta’rif beriladi: “elektron tijorat — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi” – deb ta’rif berilgan[1]. Shuningdek elektron tijorat tushunchasi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib quyidagi olimlarning ilmiy qarashlari keltirilgan. Y.Nanehkaranning ta’kidlashicha, “elektron tijorat inson hayotini tubdan o‘zgartirgan kuchli innovatsion jarayon bo‘lib, elektron tijorat ham iqtisodiy sohada axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari inqilobining asosiy mezonlaridan biridir”[2; B.41]. J.Ritterning ta’kidlashicha, “Elektron tijorat yoki elektron savdo – bu Internetda tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish hamda Internet platformasida iste’molchilaar tomonidan narxlarni solishtirish va eng so‘nggi ma’lumotlarni ko‘rish uchun ma’lumot manbai”[3]. Shu bilan bir qatorda Elektron tijorat qulayliklarga hamda xavfsiz bo‘lishi darkor. Ta’kidlash joizki, xavfsiz onlayn do‘kon mijozlarga optimal xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi, bu esa savdo hajmini oshirishga olib keladi va mijozlar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish imkonini beradi [4]. Endilikda rus olimlarining elektron tijorat atamasiga ta’rif berilganligini tahlil qilamiz. Ilmiy nutqda “elektron tijorat” atamasining paydo bo‘lishi odatda XX asrning 90-yillari o‘rtalariga to‘g‘ri keladi, bu odatda kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan iqtisodiyot sohasidagi faoliyatni tavsiflash uchun ishlatilgan. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotchilar ushbu kontseptsianing ilgari paydo bo‘lishiga moyil bo‘lib, uni elektron ma’lumot almashish texnologiyalaridan foydalanishning boshlanishi bilan bog‘lashadi

[5; b. 172]. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotchilar hamda mutaxassislarining fikrlarini umumlashtirgan holda Elektron tijoratning eng asosiy xususiyatlarini, xavfsizligini, qulayligini va samaradorligini ta'minlashning birdan bir yo'li sifatida huquqiy me'yoriy hujjatlarning tatbiq etilganligi hamda mukammalligidir.


## NATIJALAR

Tahlillar davomida shu aniq bo'ldiki, elektron tijorat sohasini rivojlanishi uchun avvalambor infratuzilma, aholining internet bilan ta'minlanganligi hamda me'yoriy huquqiy hujjatlarning mukammal ishlab chiqilishi sohaning rivojlanish asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasida "Elektron tijorat" to'g'risida qonun qabul qilingan bo'lib, elektron tijorat sohasining tartibga soluvchi meyoriy huquqiy hujjat hisoblanadi.

## MUHOKAMA




Jadvaldan ko'rinish turibdiki COVID-19 pandemiyasi oqibatida mamlakatimizda elektron tijoratga bo'lgan talab keskin ortib ketdi. Elektron tijorat 2022-yilda YaIM ning 1% ortig'iga to'g'ri keldi. Ko'rsatkich katta sonlarni tashkil qilmasada, lekin bu juda ko'plab sohalarni o'zida mujassam etgan YaIM ko'rsatkichida sekin asta o'z o'rniga ega bo'lishga harakat qilmoqda. Elektron tijoratning global rivojlanish tendensiyasi, onlayn xarid qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanadigan foydalanuvchilarning yangi avlodining o'sishi hisobiga internetning to'lov qobiliyatiga ega auditoriyasining ko'payishi bilan bog'liq [6; b. 93].



Highcharts.com

To‘plangan ma’lumotlardan o‘z tahlil va xulosalarimizni ko‘rib chiqamiz. 2013-yilda internetga ulanish 422 AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-ylda kelib bu ko‘rsatkich 3 AQSH dollarini tashkil qildi. Yuqoridagi jadvallarimiz bilan solishtiradigan bo‘lsak, narxning tushishi internet tarmog‘iga ulanish darajasini ko‘payishiga xizmat qilmoqda. Xo‘sish internet foydalanuvchilar nega bunday qilmoqdalar? Sababi internet orqali aloqa, ma’lumotlar almashinuvi, xarid va xizmat ko‘rsatish kabilar amalga oshirish tez va vaqtidan yutish imkonini yaratmoqda. Hozir biz ko‘radigan asosiy qism bu xarid sohasidir. Internet xarid sohasi bu elektron tijoratning bir qismi deb oladigan bo‘lsak, hozirda bu sohaga qiziqish insonlar tomonidan keng qiziqish bildirilmoqda. Misol sifatida Alibaba, amazon internet do‘kon vazifasini bajaradigan kompaniyalarning daromadlarining qanchalik yuqoriligi ko‘rsatib bermoqda. Hozirgi rivojlanishning ilk qadamlarini tashlab bo‘lgan O‘zbekiston oldida qiladigan bir qancha ishlar kutib turibdi. Eng avvalo elektron tijorat sohasini huquqiy masalalarini aniq bir hujjat bilan tartibga solish. Bunday hujjat O‘zbekiston hududida bormi? Albatta bor. Bu hujjatni amalda kimlar tatbiq etadi? Buni yurisprudensiya sohasida tahsil olgan oliy o‘quv yurt bitiruvchilari amalga oshiradilar. Shu soha bitiruvchilarining zamонави IT dasturlari va elektron tijorat amalga oshirishuvchi internet saytlari bilan ishlash ko‘nikmasi qay darajada? Tan olib aytishimiz kerakki hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlarda bu yo‘nalishlarda ilk qadamlar tashlangan, lekin mukammal darajada yo‘lga qo‘yilgan deb ayta olmaymiz. Shu sababdan elektron tijorat yo‘nalishida ishlayotgan huquqshunoslarni soha bo‘yicha shug‘ullanuvchi vazirliklarning hamkorligida malaka oshirish kurslarini tashkil etish,

huquqshunoslardagi elektron tijorat faoliyatidagi muammolari yechim topishda samarali omil bo‘lib xizmat qiladi[7; b.122-123]. Bu yo‘nalishda nafaqat huquqshunoslarni, qolaversa elektron tijoratda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan onlayn kurslarni tashkil etish, tadbirkorlarning faoliyatidagi tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi.



## XULOSA

Fikrimizcha, Elektron tijoratning rivojlanishi va keng tarqali uchun eng avvalambor internet bilan ta’milanganlik darajasi, internet aloqa tezligi hamda elektron tijorat normativ huquqiy hujjalarning mavjudligi hamda mukammalligi eng muhim omillardan hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishdagi ishlar yuqori darajada amalga oshirilmoqda. Bizning fikrimizcha shu bilan bir qatorda aholi orasida elektron tijorat to‘g‘risidagi qonun hujjalari va normativ me’yorlar haqida tushuntirish targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilishi yordami aholining huquqiy ongi oshib, elektron tijorat sohasida ijobjiy o‘zgarishlarni rivojlanishiga katta turki bo‘lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sod Qonuni.
2. Nanehkaran Y. K. An Introduction to electronic commerce. International journal of scientific and technology research, 2013, vol. 2, no. 4, pp. 41-48.
3. Jeffrey B. Defining international electronic commerce [Int'l L. & Bus] Available at: <https://trends.rbc.ru/trends/industry/607fe4549a7947027eaffbe6>.
4. Корягина С. Безопасность в электронной торговле: как защитить интернет-магазин. <https://m.seonews.ru/analytics/bezopasnost-v-elektronnoy-torgovle-kak-zashchitit-internet-magazin/amp/>
5. Скиба, О. Д. Понятие электронной коммерции в российском и зарубежном праве / О. Д. Скиба // Власть и управление на востоке России. 2014. — № 2. — С. 171–176.
6. Якубов, М. С. Электронная коммерция: аутсорсинг в электронном бизнесе / М. С. Якубов, Г. А. Акраимова // Перспективы развития информационных технологий. — 2016. — № 29. — С. 91–96.
7. Ashurov Sh.Q., Mirazova Sh.D.: Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamонавиyy tendensiyalari va rivojlanish omillari/ Elektron tijorat huquqiy va iqtisodiy rivojlanishi. VOL. 22 NO. 2 (2023). — B.122–125.
8. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)